

BANKLAR ISHINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH, AHOLI VA XO`JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARINING BO`SH MABLAG`LARINI TIJORAT BANKLARIDAGI DEPOZITLARGA JALB QILISHNI RAG`BATLANTIRISH

Hojiyeva Intizor Oybek qizi

Buxoro davlat universiteti

Iqtisodiyot va turizm fakulteti 2-bosqich talabasi

Narzullayevna Gulchehra Salimovna

Buxoro Davlat Universiteti Iqtisodiyot va

turizm fakulteti katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish, bank tizimida depozit siyosatini rivojlantirish hamda aholi va xo`jalik yurituvchi subyektlarning bo`sh pul mablag`larini bank depozitlariga jalb etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, depozitlarni rag`batlantirishning iqtisodiy ahamiyati, bank xizmatlari sifatini oshirish va moliya tizimini mustahkamlash yo`llari tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar:** tijorat banklari, depozitlar, bank tizimi, bo`sh mablag`lar, moliyaviy barqarorlik, rag`batlantirish.

Kirish: Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimining mustahkamligi va rivojlanishi iqtisodiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir. Aholi va xo`jalik yurituvchi subyektlarning bo`sh mablag`larini tijorat banklari orqali iqtisodiyotga jalb qilish moliyaviy resurslarni ko`paytiradi va investitsiya faoliyatini rag`batlantiradi. Bugungi globallashuv va raqobat kuchaygan davrda banklar ishi samaradorligini oshirish va depozit bazasini kengaytirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarining mijozlarga xizmat ko`rsatish sifatini oshirish, innovatsion mahsulotlar joriy etish va ishonchni mustahkamlash orqali depozit mablag`larini jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholi daromadlari insonlarning eng muhim ehtiyojlarini qondirish asosi bo`lib, bu ehtiyojlar oqibat natijada jamiyat farovonligi darajasini belgilaydi. Farovonlik iqtisodiy kategoriya sifatida aholining asosiy ehtiyojlarini qondirish darajasi bilan belgilanadi va jamiyat a`zolari daromadlariga bog`liq bo`ladi hamda ular alohida individda qanchalik yuqori bo`lsa, uning farovonligi shunchalik yuqori bo`ladi. Daromadlar nafaqat moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun qo`llaniladi, balki ular inson hayotiy faoliyatining sifat xususiyatlarini yaxshilash asosidir, ya`ni bilim darajasini oshirish uchun, sog`liqni yaxshilash uchun, dam olish vaqti, jamiyatdagi ekologik vaziyat sifatini oshirish uchun qo`llaniladi. Shunday ekan, daromadlar aholi farovonligini oshirish va ularning moddiy xususiyatlarining muhim omili bo`lib hisoblanadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida va makroiqtisodiy jarayonlarni tartibga solish borasida amalga oshirilgan jiddiy o`zgarishlarga sabab bo`lmoqda. Bu esa o`z navbatida, yangi shart sharoitlarga mos pul-kredit siyosatini yuritish va uni sifat jihatdan takomillashtirishni hamda bu yo`nalishda aniq belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo etadi va bunga imkoniyat yaratadi.

Bozor munosabatlariga o‘tilgach, aholiga bank xizmatlarining ko‘rsatilishini rivojlantirish va takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan, mijozlarning bank depozitlariga bo‘lgan ishonchini qozonish va ular uchun barcha qulayliklarni yaratish, shuningdek, xizmatlar turi, sifati va tezkorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun tijorat banklari zamonaviy xizmatlarini joriy etishga, yangi texnologiyalardan foydalanishga yanada ko‘proq ehtiyoj sezmoqdalar.

Bank resurslari tarkibida aholining omonat qo‘yilmalari muhim rol tutadi. Ular to‘liq summaga yoki bo‘lib-bo‘lib qo‘yiladi va berilishi mumkin. Omonatchi va bank o‘rtasidagi mablag‘ ko‘yishi bilan bog‘lik munosabat omonat daftarchasini berish bilan tasdiqlanadi. Banklar to‘lovchilik asosida turli xil maqsadli qo‘yilmalarni, muddatli yoki talab kilish hamda olish mumkin bo‘lgan jamg‘armalar qabul qiladilar.

Bank - bu tijorat muassasi bo‘lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish va ularni o‘z nomidan, to‘lov, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi. Tijorat banklarining yuridik shaxs sifatida faoliyati omonatchilar, kreditorlar, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy daxldor bo‘lganligi tufayli uning tashkil topishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Shu vaqt ichida bo‘lg‘usi ta‘sischilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar o‘rnatiladi, bank ustav kapitali uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar tayyorlanadi, rahbar shaxslar zarur hujjatlar tayyorlaydi, tegishli tekshiruvdan o‘tkaziladi va hokazolar.

Bozor munosabatlarini qaror topishi va rivojlanishi bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan bank tizimi va ular faoliyatini boshqarishning qonuniy asoslarini shakllantirish zaruratini keltirib chiqardi. Bank va bank faoliyatiga oid huquqiy islohotlar respublikamizda bozor iqtisodiyoti jarayonlariga moslashayotgan hozirgi rivojlanish davri bilan uzviy bog‘liq holda vujudga kelmoqda. Huquqiy ta‘minot bank menejmentining muhim elementi hisoblanib, banklar faoliyatini boshqarishning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Har qanday munosabatlar singari banklar va ularning boshqa sub‘ektlar bilan bo‘ladigan munosabatlari albatta huquqiy asosga ega bo‘lishi lozim. Chunki bank va mijozlar o‘rtasida yuzaga keladigan turli holatlar ma‘lum bir me‘yorlar asosida muvofiqlashtirilishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida huquqiy asosni shakllantirishni talab qiladi.

Tijorat banklarini ruyxatga olish va litsenziyalash O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida», «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to‘g‘risida», «Aksiyadorlik jamiyati va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi 4 Prezidentining 2002 yil 30 martdagi PF-3047- sonli «Pul massasi o‘shishini cheklash va moliya intizomiga rioya etish ma’suliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni va boshqa qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi xududida banklarni ro‘yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi hamda shartlari belgilab qo‘yilgan.

Banklar Fukarolik Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida», «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to‘g‘risida», «Aksiyadorlik jamiyati va aksiyadorlar xukukini ximoya kilish to‘g‘risida»gi Konunlari va boshqa konunchilik xujjatlariga muvofik odatda ochik yoki yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etiladi. Huquqiy asoslarini yoritishda ularni 4 ta bo‘limga bo‘lib o‘rganamiz. Ular quyidagilar:

1-bo‘lim. Kodeks va qonunlar. Biz yuqorida keltirib o‘tgan qonunlar 1 blokka kiritiladi.

2-bo‘lim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari kiritiladi.

3-bo‘lim. Qonun osti hujjatlarni ishlab chiquvchi davlat organlari - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi va boshqa shu kabi organlar tomonidan ishlab chiqiladigan yo‘riqnoma, nizom va tartiblar kiradi.

4-bo‘lim. Tijorat banklari tomonidan mustaqil ishlab chiqiladigan ichki tartib va siyosatlari kiradi. Banklar ichki tartib va siyosatini amaldagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqadi va o‘z faoliyatida ulardan foydalanadi.

Bugungi kunda bank tizimiga bo‘lgan aholi ishonchini oshirish va jozibador bank omonatlarini taklif qilish bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilishda asosiy omil hisoblanadi. Deputatlarning fikricha, omonat foizlarini real inflatsiya darajalaridan kelib chiqib, bozor o‘zi o‘rnatishi kerak. Shuningdek, aholi omonatlarini himoyalash tizimini rivojlantirish ham muhim bo‘lib, xalqaro andozalarga javob berishi aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Xulosa qilib aytganda bozor iqtisodiyotiga asoslangan barcha mamlakatlarda tijorat banklar iqtisodiyotining to‘lov mexanizmida etakchi o‘rin tutadi. Mamlakatimiz iqtisodiyot to‘lovlarni amalga oshirishni isloh qilish va rivojlantirish orqali mamlakatimiz to‘lov tizimida tijorat banklarning o‘rni kengaymoqda. Undan tashqari tijorat banklar moliya-valyuta bozorida faoliyat ko‘rsatish, ya‘ni qimmatli qog‘ozlar chiqarish va ularni joylashtirish, sotib olish bilan shug‘ullanishi, mijozlarga har xil axborotlar, maslahatlar berish bilan shug‘ullanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020 yil.

2. Sh.M.Mirziyoev «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi» T: 2016y

3. Sh.M.Mirziyoev -Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak» T: 2017y

4. O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. - T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2016.

5. Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Fan va texnologiya». 2015.

6. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik. - T.: "Moliya", 2004 yil.